

FITONIMLARNING TERMINOLOGIYADAGI O'RNI VA UNING LUG'ATLARDA BERILISHI

Dilnoza Artikova,

Abdulla Qodiriy nomidagi JDPI o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'TILdagi fitonimlarning berilishi, ularning izohlanishi bilan bog'liq muammolar hamda ularni bartaraf etish bilan bog'liq tavsiyalar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: termin, terminologiya, lug'at, izoh, o'simlik, fitonim, tamoyil, birxillik.

Tilning rivojlanishi o'sha til egasi bo'lgan millatning taraqqiy etishiga bog'liq holda kechadi. Millat taraqqiy etgani sari uning tili ham rivojlanadi. Bu rivojlanish tilning o'sha millatning hayotiga chuqurroq kirib borganligi, undan foydalanish imkoniyatlarining qulayligi kabi qator masalalar bilan belgilanadi. Albatta, har bir tilning ifoda imkoniyatlari o'sha tildagi lug'atlarda ham aks etgan bo'ladi.

Har qanday tilning so'z boyligi o'sha xalqning nufuzini belgilaydi. Tilda umumiste'mol so'zlar bilan birga maxsus so'zlar ham bo'lib, bu terminologiya sohasi doirasida tadqiq etiladigan masala. O'zbek tilining izohli lug'ati biz uchun eng muhim va birlamchi manba sifatida muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda aks etgan lug'at boyligimizni nafaqat asrab-avaylashimiz, balki, bugungi kun nuqtayi nazaridan takomillashtirishimiz ham ayni zaruriyatdir. Tilimizdagi fitonimlarning termin sifatida izohli lug'atda berilishini yaxlit monografik tadqiq etish masalasini o'z oldimizga maqsad qilganimiz holda shuni alohida ta'kidlaymizki, amalga oshirmoqchi bo'lgan izlanishimiz, O'TILdagi mavjud yutuqlarni inobatga olgan holda, ayrim tuzatish lozim bo'lgan, salaf olimlarimizning (davriy xususiyatga ko'ra) e'tiboridan chetda qolgan ba'zi masalalarni lug'atlarda, izohli, shu jumladan fitonimlar bo'yicha maxsus o'quv lug'atlarida ham berilishini takomillashtirishdan iborat. Tarixiy jihatdan fitonimlar ko'proq arxaik xususiyatga ega bo'ladi. Bu leksemalarning tahlili turli etnik guruhlarining qushlar va o'simliklar haqidagi, nomlash jarayonida obyektivlashgan fikrlarini ochib berish imkonini beradi. O'TILda "ANOR[f.1Anordoshlarga mansub, kichikroq daraxt yoki buta shaklidagi subtropik o'simlik. ..har joy-har joyda ko'milgan anor tuplari do'mbayib yotibdi.

S. Zunnunova, Olov.2 Shu daraxtning ichi qizil donalar bilan liq to'la yumaloq mevasi. Achchiq anor. Chuchuk anor. Anor suvi. Uchinchi kuni Hafiza olma, asal.. anorlar bilan to'la setkani.. bir qizdan Umidga kiritib yubordi. Mirmuhsin, Umid.3Anor (erkaklar va xotin-qizlar ismi). [1] tarzida berilgan bo'lib, "ANJIR [f.anjir]1 Tutdoshlar oilasiga mansub, sutsimon shirador, shapaloq bargli o'simlik. 2.Shu daraxtning serurug', yeyishli mevasi. Anjir shaftoli" [1] izohlarini qiyoslaganimizda anorni ham anjirni ham o'simliklarning qaysi oilasiga mansub

ekanligi berilsa-da , anor mevasining rangi va shakli aytilgan, biroq anjir mevasini “2. Shu daraxtning serurug‘, yeyishli mevasi.” Tarixda berib qo‘ya qoling. Xuddi shuningdek, “O‘RIK 1 Guli oq va pushti, mevasi esa oqish, sarg‘ish, qizg‘ish ranglarda bo‘ladigan yirik daraxt. O‘rik guli. O‘rik ko‘hati. 2. Shu daraxtning danakli mevasi. Oq o‘rik. O‘rik murabbosi. Men go‘sh-t-yog‘ni tashib bo‘lib, hovlining to‘riga o‘rik tergani bordim. M. Ismoil, Farg‘ona t. o. Juvon dasturxonga uchta arpa non, ikki-uch hovuch o‘rik tashladi. A. Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari.” [5] tarzida berilgan bo‘lib, o‘rikning qaysi o‘simlik oilasiga mansub ekanligi berilmagan, hamda mevasini anjirniki kabi yeyishli tarzida ham berilmagan. Diqqatimizni O‘TILdagi “OLMA 1 Atirgullilar oilasiga mansub ko‘p yillik mevali daraxt. Olma ko‘hati. Buolmalar hosilga kirgach, besh-olti yil o‘tishi kerak. S. Zunnunova, Olov. 2. Shu daraxtning mevasi. Oq olma. Qizil olma. Juvon qo‘lidagi olmani ustma-ust bir nechamartaba tishladi va chala chaynab yutdi. A. Qahhor, Ming bir jon. Olma sharbati organizmni baquvvat qiladi. “Saodat”. Kekirdak olmasi ayn. qushtomoq. Olma guli

1) pushti rang. Olma gulli ro‘mol; 2) olma gullagan payt, palla To‘ylari olma gulidabo‘lgan edi Olma choy Olma qoqidan qovurib tayyorlangan choy. Suvi qochgan non, olma choy bilan nonushta qilishayotganda Gadoyboy paydo bo‘ldi. H. G‘ulom, Feruza.” [1, 2] tarzida berilgan bo‘lib, anjir va anordan farqli ravishda gullashini

inobatga olinadigan bo‘lsak, “o‘rikni – Guli oq va pushti, mevasi esa oqish, sarg‘ish, qizg‘ish ranglarda bo‘ladigan yirik daraxt.” Shaklida izohlangan bo‘lsa, olmani “Atirgullilar oilasiga mansub ko‘p yillik mevali daraxt.” izohlangan. Bu o‘rinda ta’kidlamochi bo‘lganimiz shuki, har ikki mevali darx gullash xususiyatiga ega va mevalari ham har turli rangda bo‘ladi va shuni inobatga olib, bir turdagi o‘simliklarning izohlarini berishda qat’iy tamoyilga amal qilinsa ayni muddao bo‘lardi. O‘TILdagi “OLXO‘RI [f.– olxo‘ri + yeyishli] 1. Ra‘nodoshlar oilasiga mansub danakli meva daraxti. Bir tup olxo‘ri. Olxo‘ri ekmoq. Dadasi, ne hasratda ko‘karayotgan olxo‘rining hamma shoxini bita qo‘ymay kesib tashlabdi. S. Zunnunova, Ko‘k chiroqlar. 2. Shu daraxtning shirin mevasi. Sariq olxo‘ri. Qora olxo‘ri.” [13] Bu o‘rinda ham olxo‘rining shirin mevasi deb izohlanmoqda va savol tug‘iladi “boshqa mevalar shirin emasmi?” albatta bu jiddiy muammo deb qaralmasa-da, bizningcha izohlanishda bir sohadagi so‘zlar, xususan terminlarni muayyan bir tartib asosida bir xillikka amal qilib, izohlansa foydadan xoli bo‘lmas edi. O‘TILdagi gullarni ifodalovchi leksik birliklarni tahlil qilganimizda ham turlichalik mavjudligi namoyon bo‘ldi. Masalan, “ATIRGUL – Ra‘nodoshlar turkumining xushmanzara o‘simlik sifatida ekiladigan bir qancha turining umumiy nomi. Bu yo‘lning ikki chetiga atirgul emas, bir tekisda mirzaterak o‘tqazilgan. S. Zunnunova. Olov.” [1] LOLA [f. 1 bot. Loladoshlar oilasiga mansub, yirik, chiroyligulli ko‘p yillik o‘simlik; manzarali ekma gul va uning qizil, sariq yoki targ‘il guli. Lola sayli. Tog‘da ochilib lola, yer sabza bahor o‘lsa. Furqat. Gullar orasida lolalarqaddi-qomatini ko‘z-ko‘z qilib tebranadi. “O‘zbekiston qo‘riqlari”. Lola terdik dasta-dasta, kech bilan qaytdik shahar-Yo‘lda bir-bir tarqatib Erkin muhabbat xayliga. E. Vohidov, Muhabbat.” Lola sayli O‘zbek xalqining

qadimgi udumlaridanbiri: qir va adirlarda lola ochilgan chog‘da o‘tkaziladigan sayil, sayohat. Taklif etdimtong bilan dildorni lola sayliga, Boshim osmonlarga yetdi, yor deganda “mayliga”. E. Vohidov, Muhabbat. 2.ko‘chma poet.Lola rangli, qizil, qirmizi. Ochilmoq istarkan lola dudoqlar, Javdirab ko‘zlaring nechun o‘ynoqlar Uyg‘un Lola yanglig‘orazingni men ko‘rib tasvirda, Muhtalo bo‘lmoqlig‘im yozmish ekan taqdirda.Hamza. 3.Lola (xotin-qizlar ismi). [2] Diqqat qilinadigan bo‘lsak, atirgulni ham lola gulini ham qaysi oilaga mansub ekanligi ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, biroqlola bot. pometasi bilan birga ifodalangan. Bu o‘rinda shuni alohida ta’kidlash joizki, o‘simliklarning nomi umumiste’mollik xususiyati bilan birga ma’lum bir sohaning maxsus so‘zlari ham bo‘lib, shu jihatini izohli lug‘atlarda maxsus ko‘rsatgichlar bilan ifodalab ketish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Masalan, “BUG‘DOY G‘alladoshlar oilasiga mansub o‘tsimon o‘simlik va uning doni, g‘allasi. [1] so‘zining o‘simlik va uning shu nom bilan ataladigan mevasini bitta qilibberilgan, boshqa o‘rinlarda o‘simlikning nomi va mevani atashi alohida-alohida tarzda berilgan. Izohli lug‘atdagi “CHINOR [f.] 1.Po‘sti ko‘kish, panjasimon shapaloq bargli, uzoq umrli sersoya katta daraxt. Chinor chirimas, archa qurimas. Maqol.Hammayoq ozoda, suv sepilgan, toza. Sarhovuz.. osmonga yetadigan chinorlar.. “Nurali”. 2.ko‘chma Turmush o‘rtog‘i yoki o‘g‘il, farzand (ayolga nisbatan). Chiroying borida chinoringni top. Maqol. Bo‘ynimga taqqan tumorim seneding, Oldimda o‘sgan chinorim sen eding. “Oysuluv”. 3.ko‘chma Suyanchiq, qo‘llab-quvvatlovchi shaxs. [Turdiqulovning] Rayonda suyangan chinorlari bor.“Yoshlik”. [4] “**TERAK**. Toldoshlar oilasiga mansub, po‘stlog‘i ko‘kish yoki oqish, tik yoki shoxlab, tarvaqaylab o‘sadigan daraxt (tanasidan asosan qurilish materiali sifatida foydalaniladi). Oq terak. Tog‘ teragi. Ko‘k terak. Bog‘ning quyi tomonida bir chiziqda saf tortgan baland, adil teraklar. Oybek, Tanlangan asarlar.”Kabi mevasiz daraxtlarning izohlarini ham kuzatganimizda chinorning ko‘rinishini izohlanishi bilan boshlagan bo‘lsa, terak o‘simliklarning qaysi oilasiga kirishi keltirilgan. Shuningdek, “**GUJUM**. Sadaqayrag‘och. Xorazmda hovuz desa, darhol ko‘z oldingga katta-katta gujumlar – qayrag‘ochlar keladi. J. Sharipov, Xorazm. Anavi olako‘z barzangi lom deb og‘iz ochmaydi, kun bo‘yi gujum tagida osmonga qarab yotadi. S. Siyoyev, Yorug‘lik.” [1] tarzida berilgan bo‘lib, bu o‘rinda gujum so‘zining izohiga sadaqayrag‘ochning keltirilishi mantiqan xato hisoblanadi. Sababi alifbo tartibida “G” harfi “S” harfidan avval keladi. Agarda bu elektron lug‘atlarda bo‘lsa edi, uni balkim, qidiruv imkoniyatidan kelib chiqib jiddiyxato hisoblamaslik mumkin edi, biroq lug‘at kitob holida, qog‘ozda nashr qilingan ish ko‘rinishida bo‘lganda bu ham jiddiy xato deb qaralishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. В жилдли. И жилд. – Тошкент. ЎзМЕ.2020.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. В жилдли. ИИ жилд. – Тошкент. ЎзМЕ.2020.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. В жилдли. ИИИ жилд. – Тошкент. ЎзМЕ.2020.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. В жилдли. ИВ жилд. – Тошкент. ЎзМЕ.2020.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. В жилдли. В жилд. – Тошкент. ЎзМЕ.2020.